



11.01.2022 даги

Шофиркон Электр тармоклари ва Шофиркон туман ирригация бўлими ўртасида 3869550,00 сўм умумий
суммага тузилган 556 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 170
Шахсий ғазна ҳисобварақ 100022860062587042402170001

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4221000			
Январь	1 139 850,00			1 139 850,00
Февраль	1 364 850,00			1 364 850,00
Март	1 364 850,00			1 364 850,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	3 869 550,00			3 869 550,00

Жами 3869550,00 сўм

Уч миллион саккиз юз олтимиш тўққиз минг беш юз эллик сўм 00

тийин
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 100% жорий ойда 2022 йил давомида
хар ойнинг 30 чи санасигача ойлик равишда ойма -ой олдиндан тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада
тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойна _____% жорий ойнинг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши
лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар
кўрсатиш, алоқа хизматлари ва конун ҳужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар)
етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари



М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

«__» _____ 20__ й.

(имзо)

Очилов Давлат Казокович.

Ф.И.Ш.

(имзо)

Махмудов Кенжа Тураевич

Ф.И.Ш.

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

«__» _____ 20__ й.

Shofirkon Elektr ta'minoti korxonasi nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari F.Niyozov bir tarafdin va Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi nizom asosida faoliyat ko'rsatuvchi rahbari D.Ochilov ikkinchi tarafdin tizimdagi hisob varag'i ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

I. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1 Ushbu shartnoma bilan Korxona tutashtirilgan tarmoq orqali Iste'molchiga elektr energiyasi (keying o'rinlarda "Energiya" deb yuritiladi) berib turish majburiyatini, Iste'molchi esa qabul qilingan Energiya haqini to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Ulangan quvvati 750kVA va undan katta bo'lgan sanoat va ularga tenglashtirilgan Iste'molchilar olingan Energiyadan tashqari, yana talab etilgan har bir kVt yoki yagona elektr energiyasi tizimining yuklamali soatlarida qatnashuvchi haqiqiy maksimal quvvat (keyinchalik "Quvvat") uchun haq to'laydi.

II. ENERGIYA MIQDORI

2.1 Energiya iste'molining yillik shartnomaviy hajmi 8599kVt.s. ni tashkil qiladi.

2.2 Shartnoma tuzilgan kunida yetkazib beriladigan Energiyaning umumiy narxi 450 so'mni, Quvvatning narxi QQS bilan 3869550 so'mni (amalda bo'lgan tarif asosida) tashkil qiladi.*

Shundan, byudjet mablag'lari hisobidan QQS bilan (УЧ МИЛЛИОН САККИЗ ЮЗ ОЛТИМИШ ТЎҚҚИЗ МИНГ БЕШ ЮЗ ЭЛЛИК) сўм so'm,

Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan _____

2.3 Korxona Iste'molchiga Energiyani (Quvvatni) ushbu shartnomaning 1-ilovasida ko'rsatilgan miqdorda yetkazib beradi.*

2.4 Korxona tomonidan Iste'molchiga yetkazib berilgan Energiya (Quvvat) miqdori Energiyani (Quvvatni) hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi (2-ilova).

Hisobga olish priborlari, shuningdek Korxona bilan Iste'molchilarning hisob-kitob qilishiga mo'ljallangan Energiya va Quvvatni hisobga olishning boshqa vositalari Korxonaning Energiya iste'molini avtomatlashtirilgan hisobga olish va nazorat qilish tizimi bilan mos kelishi, Iste'molchining hisobidan sotib olinishi, davlat qiyoslovidan o'tishi va o'rnatilishi, bundan keyin esa Korxona vakili tomonidan ro'yxatga olinishi va tamg'alanishi kerak.

2.5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-sonli qarorining 1-ilovasidagi Tabiiy monopoliyalar sub'ektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan Iste'molchilar uchun Energiya ta'minotining yillik minimal hajmi _____ kVt.s.ni tashkil qiladi.

III. HISOB-KITOBBLAR TARTIBI

3.1 Yetkazib berilgan Energiya va Quvvat uchun hisob-kitob davri bir oy.

3.2 Korxona va Iste'molchi o'rtasida hisob-kitob qilish uchun aktiv va reaktiv energiya, shuningdek Quvvatning hisobga olinishi elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida amalga oshiriladi (3-ilova)

Agar Energiyani (Quvvatni) hisobga olish pribori balans bo'yicha mansublik chegarasida o'rnatilmaganda, elektr tarmog'ining chegarasidan hisobga olish pribori o'rnatilgan joyigacha bo'lgan uchastkadagi Energiyaning texnologik sarfining hajmi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash yo'li bilan dalolatnoma tuzilgan holda (4-ilova) aniqlanadi va haq to'lashda ushbu elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab, Korxona va Iste'molchi hisobiga o'tkaziladi.

3.3 Korxona Iste'molchi bilan birgalikda har oyda energiya va quvvatning haqiqiy sarfini aniqlash uchun hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini yozib oladi.

3.4 Iste'molchi kelgusi hisob-kitob davriga u boshlanishidan oldin Energiya va Quvvatning shartnomaviy hajmi narxini 100 foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirishi shart.

Iste'molchi hisob-kitob davrida haqiqiy iste'mol qilgan Energiya va Quvvat uchun shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda hisob-kitob qiladi va to'liq to'lovlarni navbatdagi oy boshlangunga qadar amalga oshiradi.

Iste'mol qilingan Energiya va Quvvat uchun Iste'molchining qarzdorligi, shartnomada belgilangan miqdordan ko'p iste'mol qilinganligi uchun jarima va penya mavjud bo'lsa, oldindan to'lov sifatida o'tkazilgan mablag'lari qarzdorlikni tugatishga yo'naltiriladi va oldindan to'lov sifatida hisobga olinmaydi.

3.5 Korxona har oyning 30 sanasida Iste'molchi bilan birgalikda hisobga olish priborlari

ko'rsatkichlarini yozib olish bilan bir vaqtda, hisoblagichlarning tartib raqamlarini hamda amalda iste'mol qilingan elektr energiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda hisobotni rasmiylashtiradi (5-ilova).

Hisobot asosida Korxona tegishli hisob-kitobni amalga oshiradi (6-ilova) va Iste'molchi hisob-fakturani oladi.

Iste'molchida turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta ob'ekt mavjud bo'lgan taqdirda hisob-kitoblar har bir ob'ekt bo'yicha ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura yoziladi.

Hisob-kitob asosida amalga oshirilgan to'lovlarni hisobga olganda Iste'molchining qarzdorligi aniqlansa, Korxona xizmat ko'rsatuvchi bank orqali to'lovni amalga oshirishi uchun aksept bilan to'lov talabnomasi beradi.

3.6 Iste'molchi tomonidan Energiya (Quvvat) iste'moli haqida hisobot taqdim etilmasa yoki hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari yozib olinmasa, Korxona tomonidan hisob-kitoblar iste'molning shartnomaviy miqdori bo'yicha, keyinchalik Iste'molchi bilan birga aniqlangan haqiqiy iste'mol qilingan Energiya uchun qayta hisob-kitob qilgan holda, amalga oshiriladi. Bunda, Korxona xizmat ko'rsatuvchi bankka belgilangan tartibda to'lov talabnomasi va hisob-fakturani taqdim etadi.

3.7 Aktiv va reaktiv Energiya (Quvvat) uchun hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 1 noyabrdagi 511-sonli qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasi iste'molchilari va energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar tartibi to'g'risidagi Nizomga hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Elektr energiya tariflariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.8 Tariflar o'zgarganida Iste'molchi yetkazib berilayotgan Energiya va Quvvat uchun yangi tarif kiritilgan kundan boshlab yangi tarif bo'yicha haq to'lashi kerak.

Tariflar o'zgarganda "Korxona" byudjetdan mablag' oluvchini xabardor qilishi va tomonlar yangi tariflar bo'yicha qo'shimcha kelishuv tuzishlari lozim. Qo'shimcha kelishuv tegishli G'aznachilik bo'linmasida o'rnatilganda tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, yangi tariflar bo'yicha haq to'lanadi. Bunda, Iste'molchi tarif oshgan vaziyatda to'lov kunidan boshlab keyingi 12 oydan oshmagan muddatga oldindan to'langan Energiya miqdoriga qo'shimcha haq to'lashdan ozod etiladi.

3.9 Energiya (Quvvat) uchun Korxona va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblar Iste'molchi tomonidan Korxonaning hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.10 Agar Iste'molchi Energiyaning bir qismini subiste'molchiga bir stavkali tarif bo'yicha yetkazib bersa, u Korxonaga ushbu subiste'molchilarning energetika tizimining eng katta yuklamasida qatnashuvchi yuklamasi qiymatiga kamaytirilgan Quvvat miqdori uchun haq to'laydi.

3.11 Reaktiv Energiya (Quvvat)ni o'rnini to'ldirish uchun chegirmalar (ustamalar) bitta hisobga olishnuqtasi bo'yicha o'rtacha oylik Energiyasi iste'moli 15 ming kVt.soatdan ortiq bo'lgan sanoat iste'molchilari va ularga tenglashtirilgan iste'molchilar, elektrlashtirilgan (elektr energiyasi bilan yuradigan) temir yo'l, shahar transporti, qishloq xo'jaligi iste'molchilariga nisbatan amalga oshiriladi.

3.12 Korxona va Iste'molchi har oyda navbatdagi hisob-kitob davri boshlanishi holatiga o'zaro solishtiruvdalolatnomasini tuzadi.

3.13 Energiya (Quvvat) iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning Avtomatlashtirilgan tizimiga ulangan Iste'molchilarga Energiya (Quvvat) yetkazib berish oldindan to'langan haq doirasida amalga oshiriladi.

3.14 Iste'molchining aybi bilan Energiya ushbu shartnomada talab etilgan hajmdan kam iste'mol qilinsa, oldindan to'langan mablag'lar qaytarilmaydi va keyingi hisob-kitoblarda hisobga olinadi.

3.15 Hisobga olish pribori Iste'molchining aybi bilan buzilgan (plombasi buzilgan, oynasi singan va shu kabilar) hisobga olish priborini ishga tushirish sxemasi o'zgargan, hisobga olish priboridan tashqari elektr qabul qilgichlar ulangan yoki Energiya boshqacha usulda o'g'irlangan hollarda, birgalikda ikki tomonlama dalolatnoma rasmiylashtiriladi va shu asosda Korxona Iste'molchini elektr tarmog'idan uzib qo'yish huquqiga ega.

Dalolatnoma asosida hisobga olish priborlari oxirgi marta o'zgartirilgan yoki ularni ulash sxemasi tekshirilgan kundan boshlab butun o'tgan, ammo da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan, davr uchun elektr qabul qilgichlarning ulangan quvvati va Iste'molchining 4-ilovada ko'rsatilgan ishlash soatlari bo'yicha Energiya sarfi qayta hisoblab chiqilishi shart.

Korxona 3 ish kuni mobaynida Iste'molchiga to'lash uchun qo'shimcha to'lov xujjati yozib beradi, shuningdek xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lov xujjatlarini taqdim qiladi.

Hisobga olish pribori ko'rsatkichini yozib olish ulash sxemasini tekshirish deb hisoblanmaydi.

IV. ENERGIYANI CHEKLASH VA YETKAZIB BERILISHINI TO'XTATISH TARTIBI

4.1 Iste'molchi tomonidan Korxona bilan birgalikda, Energiyani cheklash va uzib qo'yish jadvallari yagona elektr energetikasi tizimida Energiya va Quvvat tanqisligi hollarida yagona elektr energetikasi tizimining barqaror parallel ishlashini ta'minlash, avariya yuzaga kelishining oldini olish hamda iste'molchilarning tartibsiz uzib qo'yilishini bartaraf etish uchun cheklash va uzib qo'yish jadvallari ishlab chiqiladi. Uzib qo'yish jadvallari Iste'molchi tomonidan Korxona vakillaridan uzib qo'yish jadvallari joriy etilishi to'g'risidagi bildirishnoma olingandan keyin darhol amalga kiritiladi. Ushbu bildirishnoma Iste'molchi tomonidan bajarilmaganda, Korxona Iste'molchini ogohlantirgandan keyin Energiya va Quvvat iste'molining belgilangan darajada kamayishini ta'minlovchi miqdorda Energiya bo'yicha majburiy ravishda cheklaydi.

4.2 Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlaridagi avariylarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan, biroq uni darhol xabardor qilgan holda, Energiya uzatishda uzib qo'yish yoki cheklashlarga ruxsat etiladi.

4.3 Quyidagi hollarda Korxona Iste'molchiga Energiyaning yetkazib berilishini to'xtatish va uzib qo'yish oqibatlari uchun javob bermaslik huquqiga ega:

- a) Energiya (Quvvat) shartnomaviy miqdordan ko'p sarflanganida yoki Energiya (Quvvat) iste'molining belgilangan rejimi buzilganda;
- b) elektr ta'minoti shartnomasini tuzmasdan Energiya iste'mol qilinganda;
- v) "O'zstandart" agentligi tomonidan qiyoslashdan o'tkazilgan Energiyani hisobga olish priborlari bo'lmaganda;
- g) Energiya (Quvvat) uchun shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda to'lov to'lanmaganda;
- d) Korxona tarmoqlariga elektr qabul qilgichlar o'zboshimchalik bilan ulanganda yoki Quvvat shartnomada belgilangan miqdordan oshirib yuborilganda;
- e) elektr qabul qilgichlar hisobga olish priborlaridan tashqari ulanganda yoki Energiyani hisobga olish sxemasi buzilganda, shu jumladan hisobga olish priborlarining va o'lchash transformatorlarining plombalari buzilganda;
- j) Korxona vakili hisobga olish priborlarini ko'rishga qo'yilmaganda.

4.4 Elektr manbaidan uzib qo'yilishi texnogen va avariya oqibatlariga olib keladigan, o'ta xavfli vauzluksiz texnologik jarayonli (maxsus tartibda Energiya yetkazib beriladigan korxonalar ro'yxatiga kiritilganlar) sanoat korxonalarida qarzдорlik paydo bo'lgan taqdirda haq to'lanmaganligi uchun Energiya yetkazib berishni cheklash, belgilangan tartibda, elektr ta'minotining texnologik va avariya bronigacha, to'liq uzib qo'yish esa – faqat sud qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

4.5 Barcha yuqorida ko'rsatib o'tilgan vaziyatlarda yagona elektr energetika tizimi elektr tarmoqlariga qayta ulash va Energiya yetkazib berilishini tiklash ishlari Iste'molchi tomonidan shu bilan bog'lik xarajatlar qoplanganidan keyin navbat bilan amalga oshiriladi.

V. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1 Iste'molchining huquqlari:

- a) Korxona tomonidan shartnomaviy majburiyatlarning shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarilishini talab qilish;
 - b) Energiyani elektr tarmoqlarining bo'linish chegarasiga shartnomada ko'rsatilgan miqdorda yetkazib berishni talab qilish;
 - v) elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik chegarasida Energiyaning sifat ko'rsatkichlarini davlat standartlarida belgilangan darajada saqlashni talab qilish;
 - g) Korxonaning elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli Energiya bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida uzib qo'yishgacha kamida 3 sutka oldin ogohlantirishni talab qilish;
 - d) Energiyaning tegishli miqdori uchun oldindan to'lov amalga oshirilgan taqdirda Energiyaning shartnomaviy miqdorini o'zgartirishni talab qilish;
 - ye) Oldindan haq to'langanligidan qat'iy nazar Energiyaning shartnomaviy hajmini kamaytirish tomoniga o'zgartirishni talab qilish.
- Bunday talabnomalar nazarda tutilayotgan o'zgartirishlardan (joriy oy tugashidan) 10 kundan kechikmay berilishi lozim.

5.2 Iste'molchining majburiyatlari:

- a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) kelgusi hisob-kitob oyi uchun Energiya (Quvvat) hajmiga shartnomada belgilangan muddatda haq to'lash;

v) Elektr qurilmalarini zarur texnik holatini va Iste'molchilarning elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya kilinishi hamda Energiyadan oqilona foydalanilishini ta'minlash;

g) 7-ilovaga muvofiq kompensatsiya qurilmalari ish rejimiga (reaktiv energiya va quvvat iste'moli) rioya qilish;

d) energetika tizimining eng katta yuklamali soatlarida talab etilgan Quvvatdan oshmaslik.

Iste'molchi Korxonaning talabiga ko'ra quyidagilarni hisobga olishi va xabar qilishi shart:

- iste'mol qilinayotgan Energiyaning (Quvvatning) sutkalik, oylik sarflari va haqiqiy miqdorini;

- yagona elektr energetika tizimining eng ko'p va eng kam yuklamali davrida reaktiv energiyaning (quvvatning) har sutkali sarfi;

- yagona elektr energetika tizimining eng katta yuklamasining o'tish davrida Energiyaning (Quvvatning) har 30 daqiqadagi sarfi.

5.3 Korxona quyidagi huquqlarga ega:

a) shartnomada belgilangan tartibda va kerakli hajmda shartnoma majburiyatlari bajarilishini talab qilish;

b) hisob-kitob davrining har qaysi kuniga o'zaro hisob-kitoblar solishtiruv dalolatnomasini tuzish.

5.4 Korxonaning majburiyatlari:

a) shartnomaviy majburiyatlarini shartnomada belgilangan tartibda va lozim darajada bajarish;

b) Energiyani shartnomada belgilangan hajmda elektr tarmoqlarining balans mansubligi chegarasigacha uzluksiz yetkazib berish;

v) Iste'molchilarga Energiyani yetkazib berishning to'xtatib turilishi va buning sabablari to'g'risidama'lum qilish;

g) joriy etiladigan cheklashlar haqida, cheklashning hajmi va vaqtini ko'rsatgan holda, o'z vaqtida xabar qilish;

d) Iste'molchilarning Energiya kerakli miqdorda yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar haqidagi arizalarini olingan kundan boshlab o'n kundan kechiktirmasdan ko'rib chiqish, ularni bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

e) Iste'molchining belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq 5 kun muddatda oylik shartnomaviy miqdorga o'zgartirishlar kiritish, Energiyaning oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish), imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa bu to'g'risida Iste'molchiga rad etishning sababini ko'rsatgan holda yozma shaklda xabar qilish.

VI. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI VA FORS-MAJOR

6.1 Shartnomani bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida yetkazilgan haqiqiy zarar aybdor taraf tomonidan ikkinchi tarafga to'lanishi shart.

6.2 (Ushbu talab qonunchilikda mavjud emas) Korxona har bir muddati o'tkazib yuborilgan kun uchun Iste'molchiga bajarilmagan majburiyatlari summasining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan Energiya narxining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi.

6.3 Yetkazib berilgan Energiya uchun o'z vaqtida haq to'lamasa, Iste'molchi Korxonaga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda, penyaning umumiy summasi muddati o'tkazib yuborilgan summaning 50 foizidan oshmasligi kerak. Penya hisob-kitob davridan keyingi oyning tugaganidan keyin boshlab hisoblanadi.

6.4 Elektr ta'minoti shartnomasida hisob-kitob davri uchun ko'rsatilganidan 5 foizdan ortiq miqdorda elektr energiyasi iste'mol qilinganda, iste'molchilardan (maishiy iste'molchilardan tashqari) elektr ta'minoti shartnomasida ko'rsatilgandan ortiq iste'mol qilingan elektr energiyasi jami hajmi uchun belgilangan tarifning 1,15 baravari miqdorida to'lov undiriladi.)

6.5 Korxona:

a) Iste'molchi Energiya iste'molining belgilangan rejimiga rioya qilmay, Energiya iste'moli yoki Quvvatining shartnomaviy miqdoridan oshib ketishiga yo'l qo'ygan, Korxonasi tomonidan belgilangan Energiya iste'molini cheklash jadvalini bajarmagan sutkalarda past sifatli Energiya yetkazib berilganligi uchun;

b) zaxira manbaini avtomatik ulash, avtomatik qayta ulash va avtomatik davr-tezlikli o'chirishlarning ishlash vaqtida Energiyani yetkazib berishdagi tanaffuslar uchun Iste'molchi oldidamoddiy javobgar bo'lmaydi.

6.6 Qo'shimcha Quvvatga haq to'lanishi kelgusida har bir aniq vaziyat uchun Korxonadan tegishli ruxsat olmasdan ushbu shartnomada talab etilganidan ortiq Quvvatdan foydalanish huquqini bermaydi.

6.7 Taraflar shartnomani fors-major holatlari, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) tufayli bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydilar.

VII. YaKUNLOVCHI QOIDALAR

7.1 Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kirgan hisoblanadi. (Byudjet tashkilotlari uchun G'aznachilik bo'linmasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi 594-sonli qaroriga muvofiq, majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi)

7.2 Shartnomaning barcha ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

7.3 Shartnoma bir yil muddatga tuziladi. Shartnomani amal qilish muddati tugagach, taraflardan biri uni bekor qilish yoki o'zgartirish haqida ariza bermasa, u shartnomada nazarda tutilgan muddatga va shartlarda uzaytirilgan hisoblanadi. Bunday ariza shartnoma amal qilish muddatining oxirgi oyi mobaynida taqdim qilinishi lozim.

Shartnoma yangi muddatga uzaytirilganida uning shartlari taraflar kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin. (Byudjetdan mablag' oluvchilar uchun 26.13.2013 yildagi O'zbekiston respublikasining byudjet kodeksi 122-moddasiga asosan amal qilish muddati joriy moliya yilida belgilanadi).

7.4 Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga faqat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi.

7.5 Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Elektr energetikasi to'g'risida"gi Qonuni, va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

7.6. Ushbu shartnoma bo'yicha nizolar kelib chiqqan taqdirda, taraflar, qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish yuzasidan kelishilgan chora-tadbirlar ko'radilar.

Taraflar o'rtasida o'zaro hal qilinmagan nizolar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda sud tartibida hal qilinadi.

VIII. TARAFLARNING MANZILI VA BANK REKVIZITLARI

«Ta'minlovchi»

«Shofirkon tuman elektr tarmoqlari»korxonasi

Manzil:Shofirkon shaxri S.Raximov kuchasi

Tel./faks 50-2-20-63

h/v 22636000600487303326

sh., AT Sanoat-Kurilish bank

Bux min filiali MFO 00086 OKONX 11170

STIR 201188400

«Iste'molchi»

Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi

Manzil:Shofirkon t. Sultonobod ko'chasi

Tel./faks 50-2-43-75

sh/h 100022860062587042402170001

Buxoro

INN 207264753 OKONX 01613

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon


tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23402000300100001010


Bankning nomi: Toshkent shaxar

Markaziy bank MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIR: 201122919



F. Niyozov



Rahbar:

D.Ochilov

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA**

YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi:

Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi hamda Shofirkon elektr ta'minoti korxonasi o'rtasida tuzilgan elektr ta'minoti shartnomasi.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Shofirkon tuman irrigatsiya bo'limi tomonidan 2022-yil 8-yanvar sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Saidov